XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI

Asadullayev Ulug‘bek Baxtiyor o‘g‘li
Namangan davlat universiteti

Annotasiya. *Ushbu maqolada xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va ularning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, davlatlarning hududiy yaxlitligi va xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsiplarining xalqaro-huquqiy mazmuni yoritiladi. Shuningdek, globallashuv, geosiyosiy qarama-qarshiliklar va xalqaro xavfsizlikka nisbatan zamonaviy tahdidlar sharoitida mazkur prinsiplarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi. Maqolada xalqaro huquq prinsiplariga rioya etishning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqaro huquqiy tartibni mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *prinsip, xalqaro huquqning asosiy prinsiplari, xalqaro munosabatlar, suveren tenglik, hududiy yaxlitlik, kuch ishlatmaslik, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, xalqaro tinchlik va xavfsizlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются основные принципы международного права, их место и значение в системе современных международных отношений. В частности, раскрывается международно-правовое содержание таких принципов, как суверенное равенство государств, неприменение силы и угроза силой, мирное разрешение международных споров, невмешательство во внутренние дела государств, равноправие и самоопределение народов, территориальная целостность государств, а также добросовестное выполнение международных обязательств. Кроме того, рассматриваются проблемы реализации указанных принципов в условиях глобализации, геополитических противоречий и современных угроз международной безопасности. В статье обосновывается значение соблюдения принципов международного права для обеспечения*

международного мира и безопасности, развития сотрудничества между государствами и укрепления международного правопорядка.

Ключевые слова: *принцип, основные принципы международного права, международные отношения, суверенное равенство, территориальная целостность, неприменение силы, мирное разрешение международных споров, невмешательство во внутренние дела, самоопределение народов, международный мир и безопасность.*

Xalqaro huquq prinsiplari[12] xalqaro huquq subyektlarining xulq-atvoriga oid rahbariy qoidalar bo‘lib, ular ijtimoiy amaliyot natijasida shakllanadi hamda xalqaro huquqning yuridik jihatdan mustahkamlangan asoslarini ifodalaydi. Prinsiplar xalqaro munosabatlarda qaror topgan amaliyotning eng umumiy ifodasi hisoblanadi.

BMT Ustavi qabul qilingunga qadar xalqaro huquqning asosiy (fundamental) prinsiplari masalasi, asosan, xalqaro huquq doktrinasida ko‘rib chiqilgan. Hozirgi vaqtda esa xalqaro huquqning asosiy prinsiplari BMT Ustavida, uning ishtirokchilari dunyo davlatlarining deyarli barchasini tashkil etadi, Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada (1970-yil) hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning (YXHK) Yakuniy aktiga oid prinsiplar deklaratsiyasida (1975-yil) e’lon qilingan va mustahkamlangan. Mazkur prinsiplar BMT Ustavining 2-moddasida bayon etilgan [1].

Bundan tashqari, 1970-yildagi *Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada* davlatlar xalqaro hamjamiyati tomonidan BMT Ustavida o‘z ifodasini topgan zamonaviy xalqaro huquqning yettita asosiy prinsipining normativ mazmuniga autentik talqin berilgan. Xususan, Deklaratsiyada unda o‘z ifodasini topgan Ustav prinsiplari «xalqaro huquqning asosiy prinsiplari» ekanligi hamda «yuqorida bayon etilgan prinsiplarni sharhlash va qo‘llashda mazkur prinsiplar o‘zaro bog‘liq ekanligi va har bir prinsip boshqa prinsiplar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishi lozimligi» qayd etilgan.

Zamonaviy xalqaro huquqning asosiy prinsiplari – barcha xalqaro munosabatlar sohalarida davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining xulq-atvorini umumlashtirilgan tarzda tartibga soluvchi, umumiy xalqaro huquqning dastlabki va o‘zaro bog‘liq normalari tizimi (tizimosti) bo‘lib, ular imperativ (jus cogens va erga omnes) xususiyatga ega hamda xalqaro huquqning asosiy mazmuni va maqsadga yo‘naltirilganligini mujassamlashgan holda belgilaydi [2].

[12] «Prinsip» so‘zi lotin tilidagi «principium» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «asos», «boshlang‘ich negiz» ma’nolarini anglatadi. Huquqshunoslik fanida prinsip deganda dastlabki, asosiy qoida tushuniladi.

Xalqaro huquq prinsiplariga xalqaro huquq tizimidagi o‘rni va rolini tavsiflovchi muayyan xususiyatlar xosdir:

1) Prinsiplar xalqaro huquqning barcha subyektlari uchun istisnosiz majburiydir. Bu BMT Ustavining 2-moddasi 6-bandida mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra, BMTga a’zo bo‘lmagan davlatlar ham ushbu prinsiplarga muvofiq harakat qilishi lozim;

2) Ular xalqaro huquqning boshqa barcha normalariga nisbatan ustuvorlikka ega;

3) Prinsiplar vaqt bo‘yicha retroaktiv, ya’ni orqaga qaytish kuchiga ega. Bu ularga prinsiplarning o‘zidan oldin vujudga kelgan har qanday normaga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi;

4) Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro huquq prinsiplarini buzgan holdagi xatti-harakatlari jiddiy huquqbuzarliklar sifatida baholanadi va xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi;

5) Xalqaro sud Statutining 38-moddasiga muvofiq, xalqaro huquq prinsiplari xalqaro nizolarni hal etishda huquqiy asos bo‘lishi mumkin, agar nizoni bevosita tartibga soluvchi normalar mavjud bo‘lmasa.

Xalqaro huquq prinsiplari mazmunini ochib beruvchi eng muhim manbalar quyidagilardan iborat:

• BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1970-yil 24-oktabrda qabul qilingan;

• Davlatlar o‘zaro munosabatlarida amal qiladigan prinsiplar deklaratsiyasi, 1975-yil 1-avgustdagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakuniy aktida o‘z ifodasini topgan.

Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada quyidagi yettita asosiy prinsip batafsil ifodalangan:

1. Davlatlar xalqaro munosabatlarda *kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi*, ya’ni har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsadlariga mos kelmaydigan boshqa har qanday tarzda kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatishdan davlatlarning tiyilishi.

2. *Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi*, unga ko‘ra, davlatlar o‘zlarining xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik va xavfsizlik hamda adolatga tahdid solmaydigan tarzda tinch vositalar orqali hal etishlari lozim.

3. *Davlatlarning ichki vakolat doirasiga kiruvchi ishlariga aralashmaslik prinsipi*, unga ko‘ra, davlatlar BMT Ustaviga muvofiq boshqa davlatning ichki vakolat doirasiga kiruvchi ishlariga aralashmasliklari lozim.

4. Davlatlarning BMT Ustaviga muvofiq *o‘zaro hamkorlik qilish prinsipi*.

5. *Xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi*.

6. *Davlatlarning suveren tengligi prinsipi.*

7. Davlatlarning BMT Ustaviga muvofiq o‘zlari qabul qilgan *majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi* [3].

Deklaratsiyada juda muhim bir holatga alohida e’tibor qaratilgan: yuqorida bayon etilgan prinsiplarni talqin qilish va qo‘llashda ular o‘zaro bog‘liq ekanligi hisobga olinishi lozim. Har bir prinsip boshqa barcha prinsiplar kontekstida ko‘rib chiqilishi kerak.

Asosiy prinsiplarning tasnifi. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini turli mezonlar asosida tasniflashga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud. Biz prinsiplarni tartibga solish predmetiga ko‘ra ***to‘rt guruhga birlashtirishni*** asosli deb hisoblaymiz:

Birinchi guruhga tinchlik va xavfsizlikni ta’minlovchi prinsiplar kiradi. Ular davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi, davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi hamda chegaralarning daxlsizligi prinsipini o‘z ichiga oladi;

Ikkinchi guruhga davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilovchi prinsiplar kiradi. Ular jumlasiga davlatlarning o‘zaro hamkorlik qilish prinsipi, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi hamda xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi kiradi;

Uchinchi guruhga xalqlar va davlatlarning teng huquqliligiga taalluqli prinsiplar kiradi. Ushbu guruhga davlatlarning suveren tengligi prinsipi hamda xalqlar va millatlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi kiradi.

To‘rtinchi guruhga shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlovchi prinsip – inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsipi kiritiladi.

Xalqaro huquq prinsiplarining har qanday tasnifi shartli xususiyatga ega. Shu sababli yangi asosiy prinsiplarning vujudga kelishi munosabati bilan mazkur tasnifga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixi to‘xtovsiz davom etgan urushlar ketma-ketligidan iborat bo‘lib kelgan. Biroq bu holat urush insoniyat taraqqiyotining tabiiy va muqarrar bosqichi ekanligini anglatmaydi. Urushlarning kelib chiqishini

muqarrar deb hisoblash bilan bog‘liq vaziyatni o‘zgartirishga tinchlik va xavfsizlikni ta’minlovchi prinsiplar xizmat qiladi.

Kuch ishlatmaslik prinsipi. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik masalasi ilk bor Ikkinchi jahon urushi yillarida kun tartibiga chiqdi hamda xalqlarning demokratik intilishlari va xalqaro munosabatlarni urushdan keyin adolatli tarzda tashkil etishga bo‘lgan umidlarini aks ettirdi. Mazkur obyektiv qonuniyat ilk bor xalqaro huquq prinsipi sifatida e’tirof etilib, BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandida mustahkamlandi:

«Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha A’zolari o‘zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek, Birlashgan Millatlar Maqsadlariga to‘g‘ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzdagi harakatlardan o‘zlarinin tiyadilar». Keyinchalik Ustavda ifodalangan mazkur qoida BMT rezolyutsiyalari shaklida qabul qilingan hujjatlarda yanada aniqlashtirildi. Ular qatoriga yuqorida qayd etilgan 1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya, BMT Bosh Assambleyasining 1974-yildagi «Agressiyaning ta’rifi» rezolyutsiyasi, 1975-yildagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakuniy akti, shuningdek, Helsinki jarayoni doirasida qabul qilingan qator boshqa hujjatlar hamda 1987-yildagi Xalqaro munosabatlarda kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatishdan voz kechish prinsipining samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi deklaratsiya kiradi. So‘nggi hujjatda mazkur prinsipning normativ mazmuni eng to‘liq tarzda ifodalangan. Kuch ishlatmaslik majburiyati yaqqol universal xususiyatga ega. Ushbu majburiyat barcha davlatlarga taalluqlidir, chunki xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash zarurati nafaqat BMT a’zolari, balki barcha davlatlar bir-birlari bilan munosabatlarda mazkur prinsipga rioya qilishlarini talab etadi.

Mazkur prinsipning amal qilishi BMTga a’zo barcha davlatlarga, nafaqat ularga, balki boshqa davlatlarga ham tatbiq etiladi. BMT Ustaviga muvofiq, nafaqat qurolli kuch ishlatish, balki kuchdan g‘ayriqonuniy foydalanish xususiyatiga ega bo‘lgan qurolsiz zo‘ravonlik ham taqiqlanadi. BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandida qo‘llanilgan «kuch» atamasi keng ma’noda talqin qilinishi lozim. Shunday qilib, BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandida, avvalo, qurolli kuch ishlatishni taqiqlash nazarda tutilgan. Biroq Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakuniy aktida ishtirokchi davlatlar «boshqa ishtirokchi davlatni majburlash maqsadida kuchning barcha ko‘rinishlaridan tiyilish», shuningdek, «har qanday iqtisodiy majburlash aktidan tiyilish» majburiyatini olishgani qayd etilgan. Demak, zamonaviy xalqaro huquqda kuchdan g'ayriqonuniy foydalanish – qurolli

kuch ishlatish hamda keng ma'noda davlatga nisbatan har qanday noqonuniy bosim o'tkazish taqiqlanadi [4].

Alohida ravishda xalqaro huquqda e'tirof etilgan «*qurolli kuchdan qonuniy foydalanish*» konsepsiyasiga e'tibor qaratish lozim. BMT Ustavida qurolli kuchdan qonuniy foydalanishning *ikki holati nazarda tutilgan*: o'zini o'zi mudofaa qilish maqsadida (51-modda) hamda tinchlikka tahdid, tinchlikning buzilishi yoki agressiya akti yuz bergan taqdirda BMT Xavfsizlik Kengashining qaroriga asosan (39 va 42-moddalar).

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi. BMT Ustavining 2-moddasi 3-bandida quyidagicha mustahkamlangan:

«Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a’zolari o‘zlarining xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik va xavfsizlikka hamda adolatga tahdid solmaydigan tarzda tinch vositalar orqali hal etadilar». Ikki jahon urushigacha mavjud bo‘lgan xalqaro huquq davlatlarga xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalariga murojaat qilishni tavsiya qilgan, biroq ularni ushbu tartibga rioya qilishga majbur etmagan.

1899 va 1907-yillardagi Gaaga tinchlik konferensiyalarida Xalqaro to‘qnashuvlarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi konvensiyalar ishlab chiqilib, qabul qilindi. Ularning maqsadi yaxshi xizmatlar va vositachilikdan foydalanish, xalqaro hakamlik sudlari hamda tergov komissiyalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi qoidalarini umumlashtirishdan iborat edi. Masalan, 1899-yildagi mazkur Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq, muhim kelishmovchilik yoki to‘qnashuv yuzaga kelgan taqdirda, ahdlashuvchi davlatlar «qurolga murojaat qilishdan oldin, sharoit imkon bergan darajada, bir yoki bir nechta do‘st davlatning yaxshi xizmatlari yoki vositachiligiga murojaat qilishga» kelishib olganlar. Shunday qilib, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalariga murojaat qilish nizolashayotgan har bir tomonning o‘z ixtiyoriga to‘liq bog‘liq bo‘lgan.

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipini e’tirof etish yo‘lidagi muhim qadam 1928-yil 27-avgustda Milliy siyosat vositasi sifatida urushdan voz kechish to‘g‘risidagi Parij shartnomasi (Brian–Kellogg pakti)ning imzolanishi bo‘ldi. Mazkur shartnomaning II moddasida bevosita quyidagilar belgilangan: «Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar ular o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar yoki mojarolar, ularning xususiyati yoki kelib chiqishidan qat’i nazar, har doim faqat tinch vositalar orqali tartibga solinishi yoki hal etilishi lozimligini e’tirof etadilar».

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipining rivojlanishidagi navbatdagi bosqich Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining qabul qilinishi bo‘ldi.

BMT Ustavining 33-moddasiga muvofiq, har qanday nizoda ishtirok etayotgan tomonlar «avvalo nizoni muzokaralar, tekshirish, vositachilik, yarashtirish, arbitraj, sud muhokamasi, mintaqaviy organlar yoki bitimlarga murojaat qilish yoxud o‘z tanloviga ko‘ra boshqa tinch vositalar orqali hal etishga intilishlari lozim».

Zamonaviy xalqaro huquqqa muvofiq, davlatlar o‘z nizolarini faqat tinch vositalar orqali hal etishlari shart. BMT Ustavining 2-moddasi 3-bandida belgilangan umumiy qoida barcha nizolarga, shu jumladan, davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solmasligi mumkin bo‘lgan nizolarga ham tatbiq etiladi. Ustavning 1-moddasi 1-bandiga muvofiq, xalqaro nizolar «adolat va xalqaro huquq prinsiplari» asosida hal etilishi lozim. Binobarin, har qanday xalqaro nizoni hal etishda tinch vositalardan foydalanish majburiy hisoblanadi.

BMT Ustavi nizoda ishtirok etayotgan tomonlarga mazkur nizoni hal etish uchun eng maqbul deb hisoblagan tinch vositalarni erkin tanlash imkoniyatini beradi. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalari orasida diplomatik muzokaralar eng ko‘p qo‘llaniladi. Chunki ular xalqaro nizoni tezkorlik bilan hal etish vazifasiga eng yaxshi darajada javob beradi, tomonlarning tengligini kafolatlaydi, siyosiy hamda huquqiy nizolarni hal etishda qo‘llanilishi mumkin va murosaga erishishga eng samarali tarzda ko‘maklashadi.

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipining xalqaro munosabatlar amaliyotida qaror topishida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1982-yilda Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi Manila deklaratsiyasi, shuningdek, 1988-yilda Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo‘lgan nizolar va vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda bu boradagi BMTning roli to‘g‘risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Har ikkala hujjat ham nizolar va vaziyatlarning oldini olish hamda ularni tartibga solish uchun davlatlarning javobgarligini e’tirof etgan holda, ushbu jarayonda BMT va uning organlari muhim rol o‘ynashi mumkinligini ta’kidlaydi.

Davlatlar o‘zaro kelishuv asosida ular o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etishning muayyan vositalarini erkin tanlash huquqiga ega. Mazkur huquq davlatlarning suveren tengligi hamda ularning ichki va tashqi ishlariga aralashmaslik prinsiplaridan kelib chiqadi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi. Mazkur prinsip 1945-yilda BMT Ustavida mustahkamlanganidan so‘ng xalqaro huquq nazariyasida shakllandi. Ushbu prinsip davlatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta’minlash nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘lib, davlat hududini har qanday tajovuz va tajovuzkorona da’volardan himoya qilishga qaratilgan.

Mazkur prinsip quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

− hududiy yaxlitlik;

− hududiy daxlsizlik.

Prinsipning asosiy maqsadi – davlat hududini har qanday tajovuzlardan himoya qilish.

Chegaralarning daxlsizligi prinsipining *uchta asosiy elementi* ajratib ko‘rsatiladi:

1) mavjud chegaralarni xalqaro huquqqa muvofiq yuridik jihatdan belgilangan chegaralar sifatida tan olish;

2) ayni vaqtda yoki kelajakda ushbu hududlarga nisbatan har qanday hududiy da’volardan voz kechish;

3) ushbu chegaralarga nisbatan boshqa har qanday tajovuzlardan, shu jumladan, kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatishdan voz kechish.

BMT Ustavi har qanday davlatning hududiy yaxlitligi (daxlsizligi) va siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatishni taqiqladi.

1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandida nazarda tutilgan qoidaning mazmunini ochib berishda hududiy yaxlitlik (daxlsizlik) prinsipining ko‘plab elementlari quyidagicha ifodalangan: har bir davlat «boshqa har qanday davlat yoki mamlakatning milliy birligi va hududiy yaxlitligini buzishga qaratilgan har qanday harakatlardan tiyilishi kerak». BMT Ustavida, «davlat hududi Ustav qoidalarini buzgan holda kuch ishlatish natijasida yuzaga kelgan harbiy okkupatsiya obyekti bo‘lmasligi kerak», shuningdek, «davlat hududi boshqa davlat tomonidan kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish natijasida egallab olinishi obyekti bo‘lmasligi kerak», deb ta’kidlangan. Shu munosabat bilan, kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish natijasida amalga oshirilgan har qanday hududiy egallash qonuniy deb tan olinmasligi kerakligi qayd etilgan. Yuqorida keltirilgan qoidalar BMT Ustavi qoidalariga yoki Ustav qabul qilinishidan oldin tuzilgan va xalqaro huquqqa muvofiq yuridik kuchga ega bo‘lgan har qanday xalqaro bitimlarga zid tarzda talqin qilinmasligi lozim.

Mazkur prinsipning rivojlanishidagi navbatdagi muhim hujjat 1975-yildagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakuniy akti bo‘ldi. Unda davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipining eng to‘liq ifodalaridan biri keltirilgan.

Unga muvofiq: «Ishtirokchi davlatlar har bir ishtirokchi davlatning hududiy yaxlitligini hurmat qiladilar. Shu munosabat bilan ular BMT Ustavining maqsad va prinsiplariga mos kelmaydigan, har qanday ishtirokchi davlatning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligi yoki birligiga qarshi qaratilgan har qanday

harakatlardan, xususan, kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilishni ifodalovchi bunday harakatlardan tiyiladilar. Ishtirokchi davlatlar, shuningdek, bir-birlarining hududlarini xalqaro huquqni buzgan holda harbiy okkupatsiya yoki kuch ishlatishning boshqa bevosita yoxud bilvosita choralariga aylantirishdan, shuningdek, bunday choralarni qo‘llash yoki ularni amalga oshirish bilan tahdid qilish orqali hududni egallash obyektiga aylantirishdan ham tiyiladilar. Bunday turdagi hech qanday okkupatsiya yoki hududiy egallash qonuniy deb tan olinmaydi. Ishtirokchi davlatlar o‘zaro teng ravishda bir-birlarining hududlarini xalqaro huquqqa zid ravishda harbiy okkupatsiya yoki kuch ishlatishning boshqa bevosita yoxud bilvosita choralarining obyektiga aylantirishdan, shuningdek, bunday choralar yoki ularni amalga oshirish bilan tahdid qilish orqali hududlarni egallab olishdan tiyiladilar. Bunday okkupatsiya yoki hududni shu tarzda egallab olish qonuniy deb tan olinmaydi».

Davlat chegaralarining daxlsizligi prinsipi. Davlat chegaralarining daxlsizligi prinsipi Yevropa davlatlari xavfsizligining eng muhim asoslaridan birini tashkil etadi. Mazkur prinsip 1975-yildagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakuniy aktida quyidagicha ifodalangan: «Ishtirokchi davlatlar bir-birlarining barcha chegaralarini, shuningdek, Yevropadagi barcha davlatlarning chegaralarini daxlsiz deb hisoblaydilar va shu sababli hozirda ham, kelajakda ham ushbu chegaralarga nisbatan har qanday tajovuzlardan tiyiladilar».

Davlat chegaralariga tajovuz qilish deganda, chegara chizig‘ining holatini, uning yuridik jihatdan rasmiylashtirilishini yoki joylardagi chegara chizig‘ining amaldagi holatini o‘zgartirishga qaratilgan bir tomonlama harakatlar yoki talablar tushuniladi. Shu tariqa, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengash ishtirokchi davlatlari Yevropa davlatlarining mavjud chegaralarini xalqaro-huquqiy jihatdan tan olganliklarini yoki tasdiqlaganliklarini ifodaladilar.

2005-yilda BMT tomonidan «Himoya qilish majburiyati» (ingl. The Responsibility to Protect - RtoP or R2P) deb nomlangan konsepsiya qabul qilindi. Ushbu konsepsiyaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, suverenitet imtiyoz emas, balki majburiyatdir. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, suverenitet davlatlarga nafaqat o‘z ichki ishlarini nazorat qilish huquqini beradi, balki ushbu davlatlar hududida yashovchi insonlarni himoya qilish bo‘yicha bevosita mas’uliyatni ham yuklaydi.

Davlatlarning o‘zaro hamkorlik qilish prinsipi.

Davlatlarning hamkorlik qilish prinsipi xalqaro huquqning asosiy prinsiplarining butun tizimini o‘zaro bog‘lab turuvchi prinsip hisoblanadi. Davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumidagi farqlardan qat’i nazar, xalqaro munosabatlarning turli sohalarida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish

g‘oyasi BMT Ustavida o‘z ifodasini topgan normalar tizimining asosiy qoidalaridan biridir.

BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xususiyatdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish», shuningdek, «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash va shu maqsadda samarali jamoaviy choralarni ko‘rish» majburiyatiga ega.

Hamkorlik prinsipi huquqiy kategoriya sifatida BMT Ustavining boshqa qoidalaridan, xususan, 55 va 56-moddalaridan kelib chiqadi.

BMT Ustavining 55-moddasida BMT a’zolarining ikki turdagi majburiyati belgilangan:

− BMT Ustavi bilan nazarda tutilgan maqsadlarga erishishda davlatlarning o‘zaro hamkorlik qilish majburiyati;

− xuddi shu maqsadlarga erishish uchun ularning BMT bilan hamkorlik qilish majburiyati. Hamkorlikning muayyan shakllari va uning ko‘lami davlatlarning ehtiyojlari va mavjud resurslari, ichki qonunchiligi hamda o‘z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlariga bog‘liq.

1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada hamkorlikning quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilangan:

a) davlatlar xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasida boshqa davlatlar bilan hamkorlik qiladilar;

b) davlatlar barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini umumiy hurmat qilish va ularga rioya etishni ta’minlash, shuningdek, irqiy kamsitishning barcha shakllarini va diniy murosasizlikning barcha shakllarini bartaraf etish borasida hamkorlik qiladilar;

c) davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnikaviy va savdo sohalaridagi xalqaro munosabatlarini suveren tenglik va aralashmaslik prinsiplariga muvofiq amalga oshiradilar;

d) Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda BMT Ustavining tegishli qoidalarida nazarda tutilgan jamoaviy va individual choralarni ko‘rishlari shart.

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi. Mazkur prinsip har qanday sababga ko‘ra istalgan davlatning ichki yoki tashqi ishlariga bevosita yoki bilvosita aralashishni taqiqlashni anglatadi.

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipining zamonaviy tushunchasi umumiy tarzda BMT Ustavining 2-moddasi 7-bandida mustahkamlangan hamda quyidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirilgan:

– BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1970-yil 24-oktabrda qabul qilingan;

– 1975-yil 1-avgustdagi YXHK Yakunlovchi aktida bayon etilgan ishtirokchi davlatlarning o‘zaro munosabatlarida amal qiladigan prinsiplar deklaratsiyasida;

– 1995-yil 21-dekabrdagi Davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, ularning mustaqilligi va suverenitetini himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiyada.

BMT Ustavining 2-moddasi 7-bandiga muvofiq, Tashkilot «mohiyatan har qanday davlatning ichki vakolat doirasiga kiradigan ishlarga aralashish» huquqiga ega emas. Bunda aralashish deganda davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro huquq subyektining mohiyatan uning ichki vakolat doirasiga kiradigan masalalarni mustaqil ravishda hal etishiga to‘sqinlik qilishga qaratilgan har qanday choralar tushuniladi. Mazkur taqiq BMTning barcha a’zolari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarga taalluqlidir. Biroq ushbu qoidaning BMT Ustavining VII bobi asosida majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq istisnosi mavjud. Ya’ni, tinchlikka tahdid, tinchlikning buzilishi yoki agressiya akti sodir bo‘lgan hollarda tegishli choralar ko‘rilishi mumkin. Agar BMT Xavfsizlik Kengashi biror davlat hududida sodir bo‘layotgan voqealar xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solayotganini aniqlasa, bunday voqealar ushbu davlatning ichki ishi bo‘lib qolmaydi. Shundan kelib chiqib, BMTning mazkur voqealarga nisbatan amalga oshiradigan harakatlari davlatning ichki ishlariga aralashish sifatida baholanmaydi.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi. Mazkur prinsipga muvofiq, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari xalqaro huquq bo‘yicha o‘z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari shart. Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar ham, xalqaro huquqqa muvofiq bo‘lgan va davlatlar ishtirokchi hisoblangan tegishli xalqaro shartnomalar yoki boshqa bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlar ham so‘zsiz bajarilishi lozim [5].

Ko‘rib chiqilayotgan prinsip BMT Ustavining 2-moddasi 2-bandida mustahkamlangan. Unda BMTning barcha a’zolari Ustav bo‘yicha o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni vijdonan bajarishlari qayd etilgan.

Har bir davlat xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini, shuningdek, o‘zi ishtirokchi bo‘lgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni, agar mazkur shartnomalar yuqorida ko‘rsatilgan prinsiplar va normalarga muvofiq haqiqiy

bo‘lsa, vijdonan bajarishi shart. Qadimgi Rim davridayoq «*Pacta sunt servanda*» («kelishuvlar bajarilishi lozim») qoidasi e’lon qilingan.

Har bir davlat unga tatbiq etiladigan xalqaro huquqning odat normalaridan kelib chiqadigan o‘z majburiyatlarini vijdonan bajarishi shart. Nihoyat, har bir davlat o‘z zimmasiga bir tomonlama tartibda olgan majburiyatlarini ham vijdonan bajarishi lozim.

Vijdonan bajarishning yuridik mazmuni 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi qoidalaridan kelib chiqadi. Shartnoma qoidalarining qo'llanilishi ko'p jihatdan uning talqin qilinishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, shartnoma vijdonan talqin qilingan taqdirdagina, uning vijdonan qo'llanilishi ta'minlanadi, deb taxmin qilish mumkin.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi faqat haqiqiy xalqaro kelishuvlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu quyidagilarni anglatadi:

1) mazkur prinsip faqat vijdonan, teng huquqli munosabatlar asosida tuzilgan xalqaro shartnomalarga nisbatan qo‘llaniladi;

2) chunki har qanday teng huquqlilikka asoslanmay tuzilgan shartnoma davlat suverenitetini va BMT Ustavini buzadi, shu sababli u bajarilmasligi mumkin va bunday shartnoma ixtiyoriy ravishda tuzilgan deb hisoblanmaydi;

3) BMT Ustaviga zid bo'lgan har qanday shartnoma haqiqiy emas, hech bir davlat unga asoslanishi yoki undan kelib chiqadigan afzalliklardan foydalanishi mumkin emas (BMT Ustavining 103-moddasi);

4) hech bir shartnoma xalqaro huquqning imperativ normasiga zid bo'lishi mumkin emas (1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 53-moddasi).

O'z zimmasiga olingan xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi nafaqat davlatlarga, balki xalqaro huquqning boshqa subektlariga ham tatbiq etiladi.

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi. Davlatlarning suveren tengligi zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosini tashkil etadi. Bu BMT Ustavining 2-moddasi 1-bandida mustahkamlangan bo‘lib, unda quyidagicha qayd etilgan: «Tashkilot o‘zining barcha a’zolarining suveren tengligi prinsipiga asoslanadi». Mazkur prinsip BMT tizimidagi xalqaro tashkilotlar ustavlarida, shuningdek, aksariyat mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning ta’sis hujjatlarida (ustavlarida), davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ko‘p tomonlama hamda ikki tomonlama bitimlarida, xalqaro tashkilotlarning huquqiy aktlarida ham asosiy prinsip sifatida mustahkamlangan.

Zamonaviy xalqaro huquqda mazkur prinsip eng to‘liq tarzda 1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada o‘z ifodasini topgan.

Keyinchalik ushbu prinsip Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakuniy aktidagi Prinsiplar deklaratsiyasida, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengash ishtirokchi davlatlari vakillarining 1989-yildagi Vena uchrashuvining Yakuniy hujjatida, 1990-yildagi Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida va boshqa bir qator hujjatlarda yanada rivojlantirildi.

Xalqaro muloqotning teng huquqli ishtirokchilari sifatida davlatlar mohiyatan bir xil suveren huquq va majburiyatlarga ega.

1970-yildagi Deklaratsiyaga ko‘ra, suveren tenglik tushunchasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1) davlatlar yuridik jihatdan tengdir;

2) har bir davlat to‘liq suverenitet huquqidan foydalanadi;

3) har bir davlat boshqa davlatlarning huquq subyektligini hurmat qilishi shart;

4) davlatning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsizdir;

5) har bir davlat o‘zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini erkin tanlash va rivojlantirish huquqiga ega;

6) har bir davlat o‘zining xalqaro majburiyatlarini to‘liq va vijdonan bajarishi hamda boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashashi shart.

1975-yildagi YXHK Yakuniy aktining Prinsiplar deklaratsiyasida davlatlar BMT Ustavi va 1970-yildagi Deklaratsiyada bayon etilgan suveren tenglik prinsipiga rioya qilish majburiyatini olish bilan bir qatorda, suverenitetga xos bo‘lgan huquqlarni ham hurmat qilish majburiyatini oldilar. Bu quyidagilarni anglatadi:

− davlatlar o‘zaro munosabatlarida tarixiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishdagi farqlarni hurmat qilishlari lozim;

− pozitsiyalar va qarashlarning xilma-xilligi, ichki qonunlar hamda ma’muriy qoidalar suverenitetga rioya etishga to‘sqinlik qilmasligi kerak;

− har bir davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlarini o‘z xohishiga ko‘ra va xalqaro huquqqa muvofiq ravishda belgilash hamda amalga oshirish huquqi;

− davlatning xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish, ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama shartnomalarning, shu jumladan ittifoqchilik shartnomalarining ishtirokchisi bo‘lish yoki bo‘lmaslik, shuningdek, betaraflik huquqiga ega bo‘lish ham.

Xalqlar va millatlarning teng huquqliligi hamda o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi. Mazkur prinsip haqida XIX asrdayoq so‘z yuritilgan bo‘lsa-da, u faqat BMT Ustavida asosiy prinsip sifatida mustahkamlangan.

BMT Ustavining 1-moddasi 2-bandida BMTning eng muhim maqsadlaridan biri « xalqlarning teng huquqligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi printsipini hurmat

qilish asosida millatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirish» ekanligi belgilangan. BMT Ustavining 55-moddasida ushbu maqsad yanada aniqlashtirilib, u turmush darajasini oshirish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi xalqaro muammolarni, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, inson huquqlariga rioya etish va boshqa sohalardagi masalalarni hal qilish vazifalari bilan chambarchas bog‘langan.

Xalqlar va millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi deganda har bir xalq va millatning o‘zining siyosiy maqomini, davlat tuzilishi shaklini erkin belgilash hamda tashqi aralashuvsiz o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini amalga oshirish huquqi tushuniladi.

Xalqlar va millatlarning teng huquqliligi hamda o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi quyidagi xalqaro hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topgan va yanada rivojlantirilgan:

− 1960-yildagi Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to‘g‘risidagi deklaratsiyada;

− 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda;

− 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda;

− BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1970-yil 24-oktabrda qabul qilingan BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va hamkorlikka oid xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada;

− 1975-yil 1-avgustdagi YXHK Yakuniy aktida o‘zaro munosabatlarda ishtirokchi davlatlar amal qiladigan prinsiplar deklaratsiyasida.

Xalqaro hujjatlarga muvofiq, barcha xalqlar o‘z siyosiy maqomini erkin, tashqi aralashuvsiz belgilash hamda o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini amalga oshirish huquqiga ega. Jumladan, har bir xalq o‘z taqdirini o‘zi belgilashni qanday yo‘l bilan amalga oshirishni − o‘z davlatini tuzish, boshqa davlat tarkibiga qo‘shilish va hokazo − hal qilish huquqiga ega.

Davlatlar xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday zo‘ravonlik harakatlaridan tiyilishlari shart. Biroq ajralib chiqish va o‘z davlatini tuzish huquqi o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqining majburiy elementi hisoblanmaydi. Xalqaro hujjatlarda ta’kidlanishicha, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipiga rioya qiladigan hamda o‘z davlat organlarida aholining barcha qatlamlari uchun irq, diniy e’tiqod, teri rangi va boshqa belgilar bo‘yicha kamsitmasdan vakillikni ta’minlaydigan davlatlarning parchalanishiga yoki hududiy yaxlitligining buzilishiga olib keladigan har qanday harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoxud sanksiyalovchi tarzda talqin qilinmasligi kerak.

Xalqaro hujjatlarda o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipiga rioya qiladigan hamda irq, din, teri rangi va boshqa belgilaridan qat’i nazar, aholining barcha qatlamlarining o‘z organlarida vakillik qilinishini ta’minlaydigan davlatlarning hududiy yaxlitligini parchalash yoki buzishga olib keladigan har qanday harakatni rag‘batlantiruvchi yoki ma’qullovchi tarzda talqin qilinmasligi kerakligi ta’kidlanadi.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsipi. Mazkur prinsip BMT Ustavida shakllantirila boshlangan bo‘lib, uning Muqaddimasida: «insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining qadr-qimmatiga, erkaklar va ayollarning teng huquqliligiga bo‘lgan ishonchni yana bir bor tasdiqlash…» zarurligi belgilangan. Ustavning 1-moddasida Tashkilot a’zolarining maqsadlaridan biri sifatida «irq, jins, til va din bo‘yicha hech qanday farqlashsiz barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarga hurmatni rag‘batlantirish va rivojlantirishda» hamkorlik qilish nazarda tutilgan.

BMT Ustavining 55-moddasiga muvofiq, «Birlashgan Millatlar Tashkiloti:

a) aholining turmush darajasini oshirish, to‘liq bandligini ta’minlash hamda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratishga;

b) irq, jins, til va dinidan qat’i nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarga umumiy hurmat va rioya etilishiga ko‘maklashadi».

1975-yildagi YXHK Yakuniy aktida inson huquqlarini hurmat qilish alohida prinsip sifatida ajratib ko‘rsatilgan. Avvalo, davlatlar o‘z yurisdiksiyasi doirasida, ya’ni o‘z hokimiyati ostida bo‘lgan barcha shaxslarning inson huquqlarini hurmat qilishni ta’minlashlari shart. Inson huquqlarini hurmat qilish va ularga rioya etish majburiyati keyinchalik ko‘plab xalqaro hujjatlarda − xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar rezolyutsiyalarida − yanada aniq ifodalangan. Ular orasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yil 19-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 1993-yil 25-iyundagi Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi, shuningdek, qator mintaqaviy hujjatlar, xususan, 1989–1991-yillardagi YXHKning Insoniylik o‘lchovi bo‘yicha konferensiyasi hujjatlari, 1950-yil 4-noyabrdagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi va boshqalar eng mashhurlaridan hisoblanad [6].

Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar, odatda:

1) universal xususiyatga ega;

2) asosan majburiy xususiyatga ega;

3) irq, jins, diniy e’tiqod va tilidan qat’i nazar, barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi;

4) milliy qonunchilik va institutlarning modellarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

5) mustaqil ravishda amal qilmaydi, balki milliy qonunchilik hujjatlarini qabul qilishni talab etadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ayrim davlatlar boshqa davlatlardagi inson huquqlari va asosiy erkinliklarning holatiga baho berish borasida o‘zlariga mutlaq huquqni da’vo qiladilar. Bunday harakatlar xalqaro huquqning davlatlarning suveren tengligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi asosiy prinsiplariga bevosita zid keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BMT Ustavi [Elektron resurs]. URL: https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text (murojaat qilingan sana: 19.01.2026).

2. Международное публичное право: Учебник / Отв. ред. д.ю.н. Х.Т. Адилкариев. – Т.:2004. – С. 65.

3. Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya [Elektron resurs]. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/intlaw_principles.shtml (murojaat qilingan sana: 19.01.2026).

4. Барышев В.А., Международное публичное право, учебно-методический комплекс по учебной дисциплине /– Витебск: ВГУ имени П.М. Машерова, 2020. – С.29.

5. Бекяшев К. А., Международное право: учебник для бакалавров – Москва: Проспект, 2019. – С. 68.

6. Международное право: Учебник / Отв. ред. д.ю.н., проф. С.А. Егоров. М.: Статут, 2016. – С. 66.